

**O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
SANITARIYA-
EPIDEMIOLOGIK
OSOYISHTALIK VA JAMOAT
SALOMATLIGI
XIZMATINING
QASHQADARYO VILOYAT
MIRISHKOR TUMAN
BO'LIMI**



**REPUBLIC OF
UZBEKISTAN SANITARY-
EPIDEMIOLOGICAL
PEACE AND
COMMUNITY HEALTH
SERVICE
KASHKADARYA REGION
MIRISHKOR DISTRICT**

Mirishkor tumani, Yangi Mirishkor shaharchasi O'zbekiston ko'chasi 19-uy tel: 652-10-17 e.fax: 652-10-18.

9«11»2022 yil.

101-4-63-SES/2022-son

Tashkilot ichki komissiyasini tuzish to'g'risida

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabridagi "Davlat fuqorolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi 595-sonli qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mirishkor tuman SEO va JSX bo'limida odob-axloq bo'yicha ichki komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq tuzilsin va tasdiqlansin.

3. Mirishkor tuman SEO va JSX bo'limida tuzilgan komissiya tarkibiga o'z sohasini yaxshi biladigan va ko'p yillar ishlagan ishchi-xodimlardan iborat bo'lishi ta'minlansin.

4.Odob-axloq komissiyasi to'g'risidagi nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5.Xodimlarning odob-axloq qoidalari 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6.Komissiya raisi (X.Hukumov):

Xodimlar o'rtasida xizmat faoliyatiga oid va xizmatdan tashqari odob-axloq, jamoatchilik bilan munosabatlarga doir qoidalarga rioya etilishlarini,ularning kiyinish me'yorlarini belgilash,shuningdek deontologik nuqtai nazardan sog'lom, ma'naviy, ijtimoiy-psixologik muhitning barqarorligini ta'minlash,kasbga nisbatan va o'zaro hurmat munosabatlarini mustahkamlash yuzasidan muntazam ravishda tushuntirish ishlari olib borsin.

Xodimlar tomonidan odob-axloq qoidalariga,xizmat faoliyatlariga oid va xizmatdan tashqari odob-axloq,jamoatchilik bilan munosabatlarga doir qoidalarga, kiyinish me`yorlariga rioya etmaslik holatlarini aniqlangan hollarda ularning sabablarini aniqlab, ijobiy yechim bo`yicha rahbariyatga taklif kiritib borsin.

7.Barcha bo`lim mudirlari ichki mehnat tartib qoidalari va idoraviy hujjatlarni O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori talablariga muvofiqlashtirilishi ta`minlansin.

8. Ushbu buyruqni ijrosi nazoratini o`z zimmamda qoldiraman.

Asos: O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 14-oktabrdagi "Davlat fuqorolik xizmatchilari tomonidan odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta`minlash bo`yicha qo`shimcha chora tadbirlar to`g`risida"gi 595-sonli qarori va Qashqadaryo viloyat SEO va JSX boshqarmasining 31.10.2022-yil 64 t/1 sonli buyrug`i.

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	OYBEK MURTOZAYEV RAJABQULOVICH
	Imzolangan sana	09.11.2022 08:13
	Hujjat kodi	PC8188416501
	Hulosa kodi	RH4451803030

